

2024-yil 12-mart

## Yoshlar maslahatchilari va ularning koordinatorlari uchun 3-kunlik o'quv-seminari bo'lib o'tdi



3-kungi mashg'ulotlar ham yoshlar uchun zarur bilimlar va ma'lumotlarga boy bo'ldi.



“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisining ma’naviy-ma’rifiy ishlar va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sanobar Abduraxmanova “Yoshlar ishlari bo‘yicha maslahatchining tashqi imiji va ma’naviy qiyofasi. Yoshlar bilan ishlashda kasbiy axloq tamoyillari” mavzusida suhbat o‘tkazdi.



Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti boshlig'i o'rinbosari Bexzod G'afurov yoshlar maslahatchilarining ish faoliyatini jamiyat biznes-rejasida to'g'ri aks etilishi borasida ma'ruza qildi. Yoshlar maslahatchilari uchun tadbir, tanlovlarni tashkil etishda zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan o'rtoqlashdi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi Muhammadali Asrorov bilan yoshlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari mavzusida suhbat bo'lib o'tdi. Ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga javob berildi.



Kasaba uyushmalari federatsiyasi va Yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashlari tomonidan yoshlarga oid davlat dasturining bajarilishida “Eng faol tashkilot” sifatida topilgan “Maxam-Chirchiq” AJning boshqaruvi raisi yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Ro‘zmat Baydullayev ham so‘zga chiqib, o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashdi. Yoshlar maslahatchilari uchun tashkiliy masalalarda tavsiya va maslahatlarini berib o‘tdi. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi Doniyor Ahmedov ishtirokchilar bilan iqtidorli yoshlarni aniqlash haqida suhbat qurdi. Zamonaviy, yosh mutaxassis uchun muhim ko‘nikmalar, shaxsiy fazilatlar bo‘yicha o‘z bilimlari bilan bo‘lishdi.

**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yoshlar-maslahatchilari-va-ularning-koordinadorlari-uchun-3->